



## 2018 yil yanvar-aprel oylarida Farg`ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

### **RAQAMLAR:**

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **3 708,4 mlrd.somni**, osish **9,3%** ni tashkil etdi
- Iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur`ati – **103,2 %**
- Iste`mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi – **26,2%**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **30,5%**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 3708,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 8,9 % ga, tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishslashning - 6,2 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 15,9 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning - 21,4 % ga o'sishi hisoblanadi.

### ***Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishslash.***

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishslash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 115,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,1 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida tog'-kon sanoati bilan bog`liq boshqa faoliyat turi hajmi

o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan - 6,2 % ga, tog`-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar - 5,8 % ga oshganligini kuzatish mumkin.

### ***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2018 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3324,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 89,6 % ni tashkil etdi.



O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan ichimliklar ishlab chiqarish 23,9 % ga, qog`oz va qog`oz mahsulotlari ishlab chiqarish 10,8 % ga, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish 29,2 % ga, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 13,2 %ga, avtovositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 57,0 % ga, mebel ishlab chiqarish 10,9 % ga, oshganligini va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish, komp'yuterlar elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

## ***Elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni konditsiyalash.***



Elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 250,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,8 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-aprel oylarida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,9 % ga oshganligi kuzatildi.

## ***Suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***

Suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 17,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni) tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-aprel oylarida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 21,4 % ga oshganligi kuzatildi.




## **2018 yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi.**

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 972,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 3,2 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 26,2 % ni tashkil etdi.

### ***2018 yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur`atlari***




***Yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da***



***Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.***

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Farg`ona shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 34,5% ulushini), Qo`qon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 14,4% ulushini), Quvasoy shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 7,3% ulushini), Marg`ilon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,8% ulushini), Toshloq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 14,2% ulushini), Dang`ara tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 5,5% ulushini), O`zbekiston tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,8% ulushini), Quva tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,6% ulushini), Buvayda tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,5% ulushini), Beshariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,3% ulushini), Bog`dod tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,0% ulushini), Oltiariq va Farg`ona tumanlari (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,7% ulushini), Yozyovon tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,0% ulushini), Qo`shtepa, So`x, Uchko`prik, Furqat tumanlari (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,0% dan kam ulushini) hissasiga to`g`ri kelmoqda.


## ***Hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmi***



***Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi o`tg`an yilning mos davriga nisbatan foiz hisobida.***


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi o`tg`an yilning mos davriga nisbatan 109,3 % ga o`sishiga erishilda. Hududlar kesimida o`sish sur`atlari quyidagicha Farg`ona shahar 118,5%, Qo`qon shahar 115,8%, Quvasoy shahar 102,1%, Marg`ilon shahar 109,2%, Toshloq tumani 112,0%, Dang`ara tumani 109,3%,

O`zbekiston tumani 108,9%, Quva tumani 109,6%, Buvayda tumani 109,1%, Beshariq tumani 110,6%, Bog`dod tumani 107,2%, Oltiariq tumani 108,7%, Farg`ona tumani 108,1%, Rishton tumani 111,3%, Yozyovon tumani 106,9%, Qo`shtepa tumani 108,7%, So`x tumani 107,8%, Uchko`prik tumani 104,3%, Furqat tumani 110,7% ga, to`g`ri keldi.



## ***Hududlarning iste`mol tovarlari ishlab chiqarishi.***

Viloyat iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Farg`ona shahar 170,3 mlrd.so`m, Qo`qon shahar 169,3 mlrd.so`m, Quvasoy shahar 43,8 mlrd.so`m, Marg`ilon shahar 107,5 mlrd.so`m, Toshloq tumani 28,9 mlrd.so`m, Dang`ara tumani 31,5 mlrd.so`m, O`zbekiston tumani 40,7 mlrd.so`m, Quva tumani 51,1 mlrd.so`m, Buvayda tumani 26,4 mlrd.so`m, Beshariq tumani 46,4 mlrd.so`m, Bog`dod tumani 35,1 mlrd.so`m, Oltiariq tumanlari 43,0% mlrd.so`m, Farg`ona tumani 34,1 mlrd.so`m, Rishton tumani 36,2 mlrd.so`m, Yozyovon tumani 21,1 mlrd.so`m, Qo`shtepa tumani 26,6 mlrd.so`m, So`x tumani 13,6 mlrd.so`m, Uchko`prik tumani 29,2 mlrd.so`m, Furqat tumani 17,5 mlrd.so`mga, to`g`ri keldi.



## **Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**


Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,5 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 30,5 % tashkil etmoqda.

### **Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.**

Bugungi kunda viloyatda 5684 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1127 tasi Qo`qon shahri, 763 tasi Marg`ilon shahri, 741 tasi Farg`ona shahri, 382 tasi Uchko`prik tumani, 352 tasi O`zbekiston tumani, 304 tasi Dang`ara tumani, 263 tasi Buvayda tumani, 217 tasi Toshloq tumani, 208 tasi Quva tumani, 182 tasi Bog`dod tumani, 168 tasi Oltiariq tumani, 158 tasi Qo`shtepa tumani, 154 tasi Rishton tumani, 140 tasi Farg`ona tumani, 136 tasi Quvasoy shahri, 109 tasi Yozyovon tumani, 104 tasi Furqat tumani, 90 tasi Beshariq tumani, 86 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 447 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 69 tasi Qo`qon shahri, 38 tasi Marg`ilon shahri, 57 tasi Farg`ona shahri, 34 tasi Uchko`prik tumani, 28 tasi O`zbekiston tumani, 13 tasi Dang`ara tumani, 39 tasi Buvayda tumani, 17 tasi Toshloq tumani, 22 tasi Quva tumani, 19 tasi Bog`dod tumani, 18 tasi Oltiariq tumani, 8 tasi Qo`shtepa tumani, 18 tasi Rishton tumani, 13 tasi Farg`ona tumani, 10 tasi Quvasoy shahri, 7 tasi Yozyovon tumani, 13 tasi Furqat tumani, 15 tasi Beshariq tumani, 9 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

**Farg`ona viloyatida faoliyat ko`rsatayotgan hamda yanvar-aprel oylari davomida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda**



**Farg`ona viloyat statistika boshqarmasining  
Sanoat statistikasi bo`limi**

Nashr uchun mas'ul:

F.Yakubov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-87-19